



## XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING QARORI

---



---

2022 - yil 30 - aprel

VI-60-93-7-92-K/22

Oqdaryo tumani hokimligi

### **Samarqand viloyat budgetidan Oqdaryo tumani mahalliy budgetiga ajratilgan mablag'lari to'g'risida**

Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2022-yil 17-apreldagi VI-61-85-7-0-K/22-sonli qarorining 1-ilovasiga asosan viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha manbalari hisobidan Oqdaryo tumani mahalliy budgetiga tumandagi 7 ta mahalla fuqarolar yig'inlari binolarini ta'mirlash uchun 1 040,0 mln. so'm, "Chorbog" mahalla fuqarolar yig'ini binosini ta'mirlash uchun 100,0 mln. so'm va Nuroniyalar maskaniga bino sotib olish uchun 250,0 mln. so'm mablag' ajratilgan.

O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksining 126-moddasiga va "Mahalliy davlat hokimiysi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2022-yil 17-apreldagi VI-61-85-7-0-K/22-sonli qarori ijrosi yuzasidan tuman hokimining birinchi o'rinnbosari E.Ashurovning 2022-yil 27-apreldagi 02/04-109-sonli bildirgi xatini inobatga olib Xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, oltmishinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2022-yil 17-apreldagi "Viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalananish to'g'risida"gi VI-61-85-7-0-K/22-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinnbosari (E.Ashurov), tuman hokimligi Moliya bo'limi mudiri (U.Maxmanazarov) viloyat hokimligi tomonidan tumandagi 7 ta mahalla fuqarolar yig'inlari binolarini ta'mirlash uchun ajratilgan 1 040,0 mln. so'm, "Chorbog" mahalla fuqarolar yig'ini

binosini ta'mirlash uchun ajratilgan 100,0 mln. so‘m va Nuroniylar maskaniga bino sotib olish uchun ajratilgan 250,0 mln. so‘m mablag‘lardan tegishli tartibda foydalanish choralarini ko‘rsin.

3. Tuman Moliya bo‘limi (U.Maxmanazarov), G‘aznachilik bo‘limi (H.Ablaqulov) ajratilgan mablag‘lardan qonun hujjatlari talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minasin.

4. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (Sh.Shakarov)ga ajratilgan mablag‘lardan hisob-kitoblarga asosan maqsadli foydalanish, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov)ga ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatalishini nazorat qilish yuklatilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirdorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Ergasheva) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



Qudratov Sh.A